

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

LATIPOVA SHAXNOZA MAXMUDOVNA

**KORXONALAR INVESTITSION FAOLIYATIDA LIZING
XIZMATLARINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY
MEXANIZMLARI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.d. prof. Zaynalov Jahongir Rasulovich

Toshkent – 2026 yil

MUNDARIJA:

Kirish	3
 I BOB. KORXONALAR INVESTITSION FAOLIYATIDA LIZING XIZMATINING NAZARIY ASOSLARI VA UNI TARTIBGA SOLISHNING MOLIVAVIY MEXANIZMI	
1.1. Korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatini tartibga solishning moliyaviy mexanizmiga oid ilmiy-nazariy qarashlar	12
1.2. Korxonalarda investitsiyalashning lizing usulini faollashtirishning ahamiyati	27
1.3. Korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarning xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	44
 II BOB. KORXONALARDA LIZINGGA OLINGAN USKUNALARNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH HOLATINING TAHLILI	
2.1. Korxonalarda uskunalarni lizing orqali jalb qilishning moliyaviy samaradorligini baholash va lizing loyihasining oqilona shartlarini ta'minlovchi metodikani shakllantirish	63
2.2. Lizing oluvchi uchun lizing loyihasini kreditga nisbatan samaradorligini baholash tizimi	81
2.3. Lizing oluvchi faoliyatini moliyaviy tahlil qilish va reyting baholash orqali lizing beruvchining kredit riskini oldini olish	98
 III BOB. "YASHIL" IQTISODIYOTNI LIZING ORQALI MOLIVALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	
3.1. Lizing oluvchining investitsion faoliyatida atrof-muhitni lizing orqali moliyalashtirishning istiqbollari	112
3.2. Iqtisodiyotda lizing xizmatlarining samaradorligini oshirishda istiqbolli tarkibiy-funksional algoritmi ishlab chiqish	127
 XULOSA	141
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	144
 ILOVALAR	154

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish asosiy vositalarni yangilash, asosiy kapitalga sarmoyalarni kengaytirish va ayniqsa, kichik hamda oʻrta biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash orqali iqtisodiy oʻsishni jadallashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon boʻladi. Lizing operatsiyalarini soliq, bojxona, foiz stavkalari, subsidiya va kafolat dastaklari orqali maqbul tartibga solish korxonalar uchun investitsiya xarajatlarini vaqt boʻyicha “taqsimlash”, likvidlik xavflarini kamaytirish va texnologik yangilanish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning hamma tarmoqlarini texnik qurollantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida lizing xalqaro darajada ham eʼtirof etib kelinmoqda. “Moliya, investitsiya va innovatsiyalar sektorida yetakchi boʻlgan Solifi kompaniyasi tomonidan 2021-yildan lizing boʻyicha hisobotlarida lizing bozori bir maromda rivojlanayotganligini va hozirgi kunda uning hajmi 0,5 foizga oshganligi kuzatilgan boʻlsa, unda 50 ta mamlakatning moliya bozoridagi lizing asosida moliyalashtirish operatsiyalari hajmi 1470,0 mlrd. AQSH dollariga, soʻnggi oʻn yil ichida esa global lizing bozori 70 foizga oshganligini koʻrish mumkin”¹. Shu nuqtayi nazardan, korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga solish moliyaviy mexanizmlarining tarkibiy elementlari, ularning oʻzaro bogʻlanishi va makroiqtisodiy natijalarga taʼsirini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Jahon miqyosida korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlari boʻyicha ilmiy tadqiqotlar lizing bozorini chuqurlashtirish, real sektor subyektlarining asosiy kapitalga yetarli darajada sarmoya kiritishini ragʻbatlantirish hamda kichik va oʻrta biznesning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan alohida yoʻnalish sifatida

¹ <https://info.solifi.com/Solifi-Global-Leasing-Report-2024>

izchil rivojlanmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, lizing operatsiyalariga oid soliq va bojxona imtiyozlari siyosatini optimallashtirish, qayta moliyalashtirish va subsidiya mexanizmlari orqali lizing qiymatini pasaytirish, lizing bitimlarida risklarni sug'urta va kafolat instrumentlari orqali taqsimlash, lizingdan foydalanishning investitsiya faolligi, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligiga ta'sirini ekonometrik modellar asosida baholash, shuningdek, lizing xizmatlarini moliyaviy bozor infratuzilmasi va ESG tamoyillariga integratsiya qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish sanoatni modernizatsiya qilish, kichik va o'rta biznesning asosiy vositalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda real sektorda investitsiya faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida bir qator vazifalar belgilanib, soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlash hamda qayta moliyalashtirish dastaklarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvga tayanadi. Amalda lizing operatsiyalariga oid normativ-huquqiy bazani yangilash, lizing kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish, davlat tomonidan ba'zi ustuvor tarmoqlarda (agrosanoat, transport, qurilish va h.k.) lizing foiz xarajatlarini qisman subsidiyalash, shuningdek, lizing shartnomalarini sug'urtalash va kafolatlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali korxonalar uchun lizing qiymatini pasaytirish va risklarni kamaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tahlillarida ham lizing bozorini rivojlantirish real sektorda investitsiyalar hajmi va texnologik yangilanish sur'atlarini oshirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilgani mazkur yo'nalishdagi siyosatni iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Shu bois, O'zbekistonda korxonalar investitsion faoliyatida lizing xizmatlarini tartibga solishning moliyaviy mexanizmlarini chuqur ilmiy tadqiq etish, ularning samaradorligini ekonometrik va institutsional baholash mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi VMQ-37-son “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va bu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korxonalar investitsion faoliyatini tartibga solishning moliyaviy mexanizmi hamda lizing munosabatlarini tadqiq qilishda Y.Shumpeter², T.Merill, Weiwei Hu, Kai Li, Yiming Xu, Khushi Manjunath, Sundar Srinivasan, Praveen George³, G.A.Ivanov, Yu.S.Nanakin, Yu.N.Vorobev, Ye.S.Kotlyarova, S.V.Frumin, D.V.Leleskiy, V.D.Gazman, M.I.Leshenko, V.A.Shabashev, V.D.Lyubofeev, Ye.V.Kabatova, A.N.Kirkorov,

² Шумпетер Ю.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Ю.А. Шумпетер; пер. с английского В.С. Автономова, Ю.В. Автономова, Л.А. Громовой, К.Б. Козловой, Е.И. Николаенко, И.М. Осадчей, И.С. Семененко, Е.Г. Соловьева]. – М.: Эксмо, 2008. – 864 с.; The Economics of Leasing // Journal of Legal Analysis, Volume 12, 2020, pgs. 221-272, Published: 11 September 2020.

³ Columbia Law and Economics Working Paper No. 628.; Weiwei Hu, Kai Li, Yiming Xu. Leasing and the allocation efficiency of finance // Journal of Empirical Finance. Volume 74, December 2023, Page 101426 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0927539823000932>; Khushi Manjunath, Sundar Srinivasan, Praveen George. The world of B2B leasing // Forum for Economic and Financial Studies 2023; 1(1): 348